



QUTURISH KASALLIGINI BARTARAF QILISH VA OLDINI OLISH YO‘LLARI

Isafov Murodiljon Mo‘minovich

*Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi Terapiya
kafedrası o‘qituvchi.*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada quturish kasalligining kelib chiqishi, etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda kasallikni bartaraf etish va oldini olish yo‘llari batafsil yoritilgan. Quturish — o‘ta xavfli virusli yuqumli kasallik bo‘lib, asosan hayvonlar orqali insonlarga yuqadi va davolanmagan hollarda o‘lim bilan yakunlanadi. Maqolada zamonaviy profilaktika choralari, emlash tizimi, sanitariya-gigiyena qoidalari hamda aholining tibbiy savodxonligini oshirishning ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: quturish, rabies, virus, profilaktika, emlash, epidemiologiya, zoonoz kasallik.

KIRISH

Quturish kasalligi (lotincha Rabies) insoniyatga qadimdan ma‘lum bo‘lgan eng xavfli yuqumli kasalliklardan biridir. Ushbu kasallik markaziy asab tizimini zararlab, deyarli barcha hollarda o‘lim bilan yakunlanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 59 mingdan ortiq odam quturish kasalligidan vafot etadi. Kasallik asosan itlar, mushuklar, yovvoyi hayvonlar orqali yuqadi. Shu sababli quturishni oldini olish va bartaraf etish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Quturish kasalligining etiologiyasi

Quturish kasalligi Rhabdoviridae oilasiga mansub bo‘lgan RNA tutuvchi virus sababli yuzaga keladi. Virus tashqi muhitga nisbatan chidamsiz bo‘lib, yuqori harorat va dezinfektsiya vositalari ta‘sirida tez nobud bo‘ladi. Virus organizmga



asosan hayvon tishlashi yoki shilliq qavatlar orqali kiradi va nerv tolalari bo‘ylab bosh miyaga yetib boradi.

Epidemiologiyasi

Quturish zoonoz kasallik hisoblanadi, ya’ni hayvonlardan insonlarga yuqadi. Kasallik manbai sifatida ko‘pincha: itlar, mushuklar, tulkilar, bo‘rilar, yarasalar uchraydi. Qishloq hududlarida quturish kasalligi ko‘proq qayd etiladi. Mavsumiylik kuzatilmaydi, ammo yoz oylarida hayvonlar bilan aloqa ko‘payishi sababli xavf ortadi.

Klinik belgilari

Quturish kasalligi bir necha bosqichda kechadi:

1. Inkubatsiya davri – 10 kundan 3 oygacha, ba’zan 1 yilgacha davom etishi mumkin.
2. Boshlang‘ich bosqich – holsizlik, bosh og‘rig‘i, isitma, tishlangan joyda og‘riq.
3. Qo‘zg‘alish bosqichi – suvdan qo‘rquv (gidrofobiya), mushaklar spazmi, asabiylashish.
4. Falajlik bosqichi – nafas va yurak faoliyatining to‘xtashi bilan yakunlanadi.

Quturish kasalligini tashxislash

Kasallikni aniqlash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- epidemiologik anamnez
- klinik belgilar
- laborator tekshiruvlar (PCR, immunoflyuorestsensiya)
- vafot etgan hayvon to‘qimalarini tekshirish
- Erta tashxis qo‘yish kasallikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Quturish kasalligini bartaraf qilish yo‘llari

Shoshilinch tibbiy yordam

Hayvon tishlagan zahoti:

- jarohatni sovun va oqava suv bilan yuvish



-antiseptik bilan ishlov berish

-zudlik bilan shifokorga murojaat qilish

Maxsus profilaktika

Antirabik vaksina

Antirabik immunoglobulin

Emlash kursi to'liq o'tkazilsa, kasallikning rivojlanishi to'liq oldi olinadi.

Oldini olish choralari

Quturish kasalligini oldini olish quyidagi choralarga asoslanadi:

-uy hayvonlarini muntazam emlash

-daydi hayvonlar sonini nazorat qilish

-aholi o'rtasida tushuntirish ishlari

-veterinariya va sanitariya nazoratini kuchaytirish

-Aholi o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish

Aholining quturish haqidagi bilimlarini oshirish kasallikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari, maktab va tibbiyot muassasalari orqali targ'ibot ishlari olib borilishi zarur.

XULOSA

Quturish kasalligi o'ta xavfli va o'limga olib keluvchi yuqumli kasallik bo'lib, uni davolashdan ko'ra oldini olish samaraliroqdir. O'z vaqtida ko'rsatilgan tibbiy yordam, emlash va profilaktik choralarga rioya qilish orqali kasallikni to'liq bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Quturish bo'yicha qo'llanma. – Jeneva, 2022.
2. Karimov I.A. Yuqumli kasalliklar. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2021.
3. WHO. Rabies vaccines: WHO position paper. – 2018.
4. CDC. Rabies Prevention and Control. – Atlanta, 2020.
5. Xudoyberdiyev S. Veterinariya epidemiologiyasi. – Samarqand, 2019.